



Kimyoxon G' KAMOLOVA,

PhD, dotsent, Namangan davlat pedagogika instituti, Namangan O'zbekiston

E-mail: kumush.otabek@gmail.com ORCID: 0009-0007-9877-9321

TDPU professori, f.f.n. M.Tillavodiyeva taqrizi asosida

SOCIO-SPIRITUAL INTERPRETATION OF THE FEMALE PHENOMENON IN EASTERN PHILOSOPHICAL THOUGHT

Аннотация

This article analyzes the views on the phenomenon of women in Eastern philosophical thought, the role of women in society, issues of gender equality, and the attitude towards women in modern society from a socio-philosophical perspective. Also, the attitude towards women in history is revealed through examples.

Keywords: female phenomenon, gender equality, spirituality, ethics, social transformation, feminist philosophy, human value.

СОЦИАЛЬНО-ДУХОВНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ФЕНОМЕНА ЖЕНЩИНЫ В ВОСТОЧНОЙ ФИЛОСОФСКОЙ МЫСЛИ

Аннотация

В статье с социально-философской точки зрения анализируются взгляды на феномен женщины в восточной философской мысли, место женщины в обществе, вопросы гендерного равенства, а также отношение к женщине в современном обществе. В статье также на примерах раскрывается отношение к женщинам в истории.

Ключевые слова: женский феномен, гендерное равенство, духовность, мораль, социальная трансформация, феминистская философия, ценность человека.

SHARQ FALSAFIY TAFAKKURIDA AYOL FENOMENINING IJTIMOYIY-MA'NAVIY TALQINI

Аннотация

Ushbu maqolada Sharq falsafiy tafakkurida ayol fenomeni haqidagi qarashlar, ayollarning jamiyatdagi o'rni, gender tenglik masalalari, hamda zamonaviy jamiyatda ayollarga bo'lgan munosabat ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, tarixda ayollarga bo'lgan munosabat misollar orqali ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ayol fenomeni, gender tenglik, ma'naviyat, axloq, ijtimoiy transformatsiya, feministik falsafa, inson qadri.

Kirish. Jahon ijtimoiy-falsafiy tafakkurning muhim tadqiqot obyektlaridan biri "ayol fenomeni" masalasining qadimdan bahs va munozarali qarashlarga ega bo'lib kelganligi bu borada o'z yechimini kutayotgan muammolarni tadqiq etishni talab qilmoqda. Ayolning jamiyatdagi o'rni, oila va ijtimoiy hayotdagi vazifalari, uning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, ta'lim-tarbiya masalasidagi ahamiyati har bir davr va sivilizatsiyalarda turlicha talqin etilgan.

Bugungi globallashuv va demokratik transformatsiyalar davrida ayollar masalasi – inson huquqlari, gender tenglik, fuqarolik jamiyati, ma'naviy taraqqiyot va oilaviy munosabatlar bilan chambarchas bog'liq dolzarb ilmiy muammolardan biriga aylandi. Shu sababli ayol fenomenining tarixiy-falsafiy ildizlari hamda Sharq tafakkuridagi o'ziga xos yondashuvlarni qiyosiy o'rganish, ayollarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini ochib berish hozirgi zamon uchun ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Sharq falsafiy tafakkurida ayollarga bo'lgan e'tibor, ularning ta'lim-tarbiya borasidagi o'rni turli janrlardagi ijod namunalariida og'zaki va yozma ravishda aks ettirilgan. Masalan, pandnoma asar "Kalila va Dimna", Nosir Xisravning "Saodatnoma", Nizomulmulknning "Siyosatnoma", Kaykovusning "Qobusnoma", Sa'diyning "Guliston", "Bo'ston" kabi asarlarida ayollar e'tirof qilingan.

Bundan tashqari Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Mahmud Qoshg'riyning "Devoni lug'otit turk", Farobiyning "Fozil odamlar shahri", Ibn Sinoning "Uy-joy tutish tadbiri", Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan

yodgorliklar" kabi asarlarda ayollar jamiyatning muhim qismi ekanligi tavsiflangan.

Keyingi davrlarda ham Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Alisher Navoiylar tomonidan ayollar yuksak e'tirof etilgan bo'lsa, bugungi kunda gender tenglik, ijtimoiy identiklik, oilaviy munosabatlar, ijtimoiy himoya, ayollarning davlat boshqaruvidagi roli, fan va ta'limdagi o'rni baholanmoqda va hattoki ilmiy tadqiqot mavzulariga ayatlanmoqda.

Tahlil va natijalar. Sharq tafakkurida ayol fenomenining falsafiy mohiyati tahlil qilinadigan bo'lsa, jamiyatning madaniy darajasi va ma'naviy barkamolliigi o'z davrida ayollarga bo'lgan munosabat bilan belgilanib, ayol fenomeni ko'proq ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, oila barqarorligi va jamiyat ma'naviy taraqqiyoti bilan bog'liq holda talqin etilgan. Sharq mutafakkirlari ayolni avvalo tarbiya, mehruhahabbat, axloq va komillik timsoli sifatida baholaganlar. Uning kelajak avlod tarbiyasidagi o'rniga yuksak baho berganlar.

Ammo, shunday turli obyektiv va subyektiv omillar bo'lganki, Sharq ayoli qoloq hayot girdobida yashashga majbur bo'lgan, ayol va erkak o'rtasidagi gender tenglik tushunchasi bo'lmagan, ayollarga va qizlarga bo'lgan munosabat achinarli holatda aks etgan.

Masalan, qadimgi Xitoy jamiyatida ikki jins orasidagi farq o'sha davrlarda ham bo'lgan, garchi ular er - xotin bo'lsalar ham bir yuvinish xonasidan hatto, bitta chamadondan ham umumiy foydalanish mumkin emas edi, balki kiyim qurituvchi ilgaklar ham ajratilgan bo'lishi zarur edi, turmushga chiqqan

ayollar qizlik uylariga kelishganda o'z ukalari va singillari bilan bir xontaxtada o'tirib ovqatlanishlari ham taqiqlangan. Ayollar qizlik uylarini tark etganlaridan keyin shunga o'xshash shafqatsiz qonun – qoidalarga rioya qilishlariga to'g'ri kelgan, bu o'sha davrda kuchli darajadagi aksetizm (zohidlik, tarkidunyochilik)ga bo'lgan intilishlarni ko'rsatadi[2].

Konfutsiylik ta'limotiga kelib, jamiyat barqarorligi oiladan boshlanishi, oilaning ma'naviy tayanchi esa ayol ekanligi ta'kidlanib, ayolga oilaviy tartib va ijtimoiy uyg'unlikning muhim elementi sifatida qarala boshlandi. Biroq mazkur ta'limotda ham, patriarxal munosabatlar ustuvor bo'lib, ayolning ijtimoiy faolligi ma'lum chegaralar bilan belgilanadi.

Islom falsafasida esa ayol fenomeniga nisbatan nisbatan mukammal va insonparvar yondashuv shakllangan. Islom dini birinchilardan bo'lib, ayol kishi ham xuddi erkak kishidek teng asoslarda inson ekanligini e'lon qildi. Xususan, Qur'oni karimning 35 ta sura va 100 dan ortiq oyatlarida ayol so'zining ishlatilishi va suralardan biri aynan “Niso” ya'ni “Ayollar” deb nomlanishi va unda ayolning mavqei, uning hayotdagi o'rni, haq-huquqlari batafsil bayon etilishi, ayollarga bo'lgan e'tiborning alohida e'tirof etilgan ligidan dalolat beradi.

Islom tafakkurida ayol va erkak insoniylik nuqtayi nazaridan teng mavjudot sifatida talqin qilinadi. Ayolning ilm olish, mulkka egalik qilish, jamiyat hayotida ishtirok etish huquqlariga to'xtalik o'tilgan. Jumladan, “Niso” surasining 32-oyatida “Erkaklarga o'z kasbidan nasiba bor. Ayollarga o'z kasbidan nasiba bor”ligi bayon etilgan bo'lib, unda ayollarning ham erkaklar bilan bir xil darajada ilm olishlari va kasb-korga ega bo'lishlari nazarda tutilgan. Yana Qur'onda shunday deyiladi: “Ular (ayollar) Sizlarning libosingiz. Sizlar ular uchun libossiz (ya'ni. er-xotin bir-biriga kishi libosga muxtoj bo'lgani kabi muxtojdirlar)”. (Baqara, 187-oyat)

Hadislarida ham “Avvalo onangga, onangga va yana onangga, so'ngra otangga yaxshilik qil”, “Ayollarni faqat ulug' odamlar hurmat qiladi, ularni faqat pastkash odam xo'rlaydi”, “Jannat eshigi onalar oyog'i ostidadir”, – deyilgan. So'z mulkining sultoni Alisher Navoiy asarlarida ayol fenomeni ma'naviy poklik, sadoqat, muhabbat va komillik timsoli sifatida talqin etiladi va quyidagi misralarni bitgan:

Onalarning oyog'i ostidadur

Ravzai jannatu jinon bog'i.

Ravza bog'i visolin istar ersang

Bo'l onaning oyog'in tufrog'i.

Alisher Navoiy asarlarida ayol nafaqat muhabbat timsoli, balki ma'naviy poklik, sadoqat va komillik namunasi sifatida gavdalanadi. Navoiy inson qadrini yuksak baholar ekan, ayolga hurmat jamiyat ma'naviy madaniyatining mezon ekanligini ko'rsatadi.

Sharq mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiyning falsafiy qarashlarida ayolning ma'naviy kamolotdagi o'rni, oila va jamiyat tarbiyasidagi ahamiyati alohida yoritilgan. Masalan, Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida jamiyat komilligi axloqiy barkamol insonlar bilan bog'liqligini ta'kidlaydi[1]. Bu jarayonda ayol tarbiya va ma'naviyat tashuvchisi sifatida muhim o'rin tutadi.

Ibn Sino inson kamoloti masalasini tahlil qilar ekan, tarbiya muhiti va oilaviy munosabatlarning ahamiyatiga alohida e'tibor qaratadi. Bu jarayonda ayolning ma'naviy mas'uliyati muhim omil sifatida baholanadi. Ibn Sino enaganing durust tanlanishi (estetik did bila n) bolaning sog'lom, madapnyatli, ko'ngildagidek bo'lib o'sishiga zamin ekanligini ta'kidlaydi. Ibn Sino o'sha davr hukmron ideologiyasi qarashlariga zid o'laroq ayollarning jamiyat va oiladagi tutgan o'rniga katta ahamiyat beradi. Uningcha ayollar hamma yerda erkakning munosib hamrohi bo'lishi bilan bir qatorda oila mustahkamligi hamda bolalarni tarbiyalashda

uning eng yaqin yordamchisidir. Ibn Sino o'zining “Uy-joy tutish tadbiri” haqidagi asarida ayollarning o'n yetti xislatini sanab ko'rsatdi; bularga dastlab ayol oqil va e'tiqodli, sharm-hayolik va or-nomuslik, ziyrak va farosatlik, yoqimtoy, o'z eriga mehru muhabbat qo'ygan, farzand ko'ra oladigan, ezma bo'lmagan, itoatkor, dili pok, bexarxasha, pokiza, vazmin va o'zini tutib olgan jiddiy va ulug'vor, har bir xatti-harakatida o'zining yaxshi xislatlari bilan ajralib turadigan, erining birin i ikki qiladigan – tejamkor, erining og'ir damlarida unga malham bo'la oladigan mushfiq mehribon bo'lishi kerak[6].

Buyuk sohibqiron Amir Temur tuzuklarida saroy malikalari uchun ochilgan maktablar, shu jumladan, saroyning katta malikasi Saroymulkxonim haqida ham fikr yuritilib, bu davrda ayollarning nufuzi va jamiyatdagi mavqei ko'tarilgan. Saroymulkxonim nafaqat, oqila ayol sifatida Shohruh Mirzo, Muhammad Sulton Mirzo, Xalil Sulton Mirzo, Ulug'bek Mirzolarning mehribon tarbiyachisi, balki bunyodkor va yaratuvchi malika timsolida ham tarixda qolgan. Uning sa'y-harakati va homiyligi bilan madrasa, xonaqoh va boshqa inshootlar qurilgan. Yozma ma'lumotlarda yozilishicha, “Saroymulkxonim o'z jamg'armasi hisobiga madrasa qurdirish uchun Amir Temurdan ruxsat so'raydi va madrasa qurdiradi. U qurdirgan madrasa XIV asr oxirida va XV asr boshlarida Samarqanddagi madrasalar orasidagi eng ulkani va mahobatli bo'lgan. Madrasaga zamonasining yetuk mudarrisilari tayinlanib, ular tolibi ilmga diniy va dunyoviy ilmlardan dars berganlar. Saroymulkxonim madrasada tahsil oladigan talabalardan muntazam xabar olgan va ularga homiylik qilgan edilar”.

Amir Temurning o'zi ham, “ayollarga imkon qadar iliq muomalada bo'lishga harakat qildim”[5],– degan. Ayollar ham imkon qadar Amir Temurni qo'llab-quvvatlashga harakat qilishgan. Ibn Arabshoh shunday yozadi: “Temur lashkarlari orasida ayollar ham bo'lib, ular dushman bilan bo'lgan to'qnashuvlarda matonat ko'rsatardilar. Nayza sanchishda, qilich o'ynatishda va kamondan mo'ljalga olishda mohir erkaklardan ko'ra ham ortiqroq ish qilardilar. Agar ulardan biri homilador bo'lib yo'lda ketayotgan paytlarda uni dard tutsa, yo'ldan chetga chiqardi. U tezda yig'ishtirib olgach, tag'in uloviga minib jangga kirardi”.

Eron mutafakkiri Abdibek Sheroziy ayollarning ilm olishi borasida shunday degan edi: “Yaxshi tahsil ko'rgan va ilm nuri bilan xulqini yaxshilagan ayol har yerda izzat topadi. Ilm – ayol uchun ziynat. Aqlini nodonlikdan qutqargan har bir ayol nomus, izzat, ayollik qadrini tushunib yetadi. Bunday ayol hech bir ishda adashmaydi” ilmsiz ayol esa, bola tarbiyalashda turli xatolarga yo'l qo'yadi[3]

Keyinchalik Turkiston ma'rifatchilik harakati g'oyalarining jamiyatga kirib borishi natijasida ayollarning bilim olishi va jamiyatdagi o'rniga e'tibor kuchaya bordi. XX asr boshlarida millat ma'rifatparvari Abdulla Avloniy: “Qizlar bilim olishga hammadan ko'proq intilishlari lozim, zero, bu bilimlar bilan ular kelajak avlodni tarbiyalaydilar”, – deb yozgan bo'lsa, Abdurauf Fitrat “Oila” asarida: “Ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligi milliy ozodlik, erk uchun zarur: ayollar faqat uy-ro'zg'or, bola tarbiyasi bilan band qolmasligi kerak”,– deydi. Mutafakkir ziyolilarning barchasi ayollar uchun ilma'ma'rifat zaruri ekanligini ta'kidlashgan.

Hozirgi kunda davr o'zgardi, ayollarga nisbatan barcha sohalarda imkoniyat eshiklari ochildi. Ayollarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, gender tenglik masalasi, jamiyatdagi o'rni borasidagi islohotlar ularning mavqeining oshishiga sabab bo'ldi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti bergan ma'lumotlarga ko'ra, sobiq sho'rolar tuzumi davrida hokimiyat ishlarida ayollarning ishtiroki masalasida dunyo bo'yicha ayollarga nisbatan yaxshi sharoit yaratilgan mamlakat Belorussiya bilan

Moldaviya hisoblanib, ular dunyo bo'yicha 21-o'rinni egallaganlar, Rossiya esa - 24, Qozog'iston – 26, Qirg'iziston bilan O'zbekiston – 32 o'rinni egallaganlar. Bugungi kunda esa, Yangi O'zbekiston sharoitida xotin-qizlarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtiroki mutlaqo yangi bosqichga ko'tarildi, bu borada bir nechta rasmiy hujjatlar qabul qilindi, gender tenglik, inson huquqlari, fuqarolik jamiyati va ma'naviy taraqqiyot masalalari ayollar faolligi bilan bevosita bog'landi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Sharq tafakkurida ayol nafaqat oilaviy munosabatlarning subyekti, balki ma'naviy madaniyat, ilm-ma'rifat va ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili sifatida qaralgan. Ayniqsa, Temuriylar davrida ayollarning ilm-fan, madaniyat va davlat boshqaruvidagi ishtiroki va ijtimoiy jihatdan nufuzi yuqori darajaga ko'tarilganligi ayol fenomenining jamiyat hayotidagi o'rini ko'rsatib beradi.

Bugungi globallashuv va axborotlashuv sharoitida ayol fenomeniga nisbatan munosabat yangi mazmun kasb etmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, Sharq tafakkurida shakllangan ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini zamonaviy demokratik tamoyillar bilan uyg'unlashtirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shunday ekan, Sharq falsafasida ma'naviy meros orqali ayol fenomeniga oid falsafiy qarashlarini o'rganish va ularni fanlar bilan integratsiya qilish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan gender madaniyatini shakllantirish maqsadida mutafakkirlarning asarlaridan ijobiy foydalanish, ulardagi ayol tarbiyasi, oila va ma'naviyatga oid qarashlarini ijtimoiy gumanitar fanlar tizimiga keng joriy etish lozim. Hozirgi murakkab axborotlashgan jamiyatda ayol fenomenining ijtimoiy-ma'naviy talqinini o'rganish – yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini anglashga, ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimini takomillashtirishga, jamiyatda ayollarning ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi muhim ilmiy-nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Xalq merosi, 2022. – B. 159.
2. Djalilova S.I. “Qadimgi xitoy kiyim – kechaklarini ifodalovchi atamalarning lingvo – kognitiv tahlili” dissertasiya. 2021-yil 54-bet
3. Hamidjon Xomidiy; Mahmud Hasaniy. Mashriqzamin hikmat bo'stoni. Toshkent: “Sharq” nashriyot matbaa konserni, 1997-yil
4. Динавикода Каринэ. Роль женщины во властных структурах: реальность и перспективы //Ижтимоий фикр инсон хукуклари. - Тошкент, 2006. - № 4. - Б. 129.
5. Темур тузуклари. Форсчадан А. Соғуний ва Ҳ. Кароматов тажримаси. Б. Аҳмедов Таҳр. остида. – Т.: “Фафур Фулом”, 1996. – 344 б.